

## KORRUPSIYA - O‘ZBEK MILLATINING KUSHANDASI

Andijon mashinasozlik instituti  
 “Transport muhandisligi” kafedrasida

Assistant:

Xalimjonov Elmurod Xalilbek o‘g‘li

Tel: +998944323202

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada korrupsiya haqida tariximizga nazar soladigan bo‘lsak, yozma manbalarda korrupsiya haqida eramizdan avvalgi Shumer podsholigi davrida eslatib o‘tiladi. Korrupsiya bizning kunlargacha yetib kelganligi shundan dalolat beradiki, boshqa illatlar kabi, uni ham tag-tugi bilan yo‘qotib bo‘lmaydi. Hatto rivojlangan o‘arb davlatlari ham korrupsiyadan butkul xalos bo‘lolmagan. Biroq jamiyat rivojiga xavf soluvchi korrupsiyaning oldini olish, unga qarshi kurashish Yer yuzidagi barcha davlatlarda hamisha va hamma zamonda davom etgan.

**Kalit so‘zlar:** Korrupsiya, jamiyat, davlat, surushtiruv, jinoyatchi, adolatsizlik, daromad, jamoatchilik, huquq, idora, boshqarma, illati, muammo, yechim, taklif.

**Аннотация:** В этой статье мы рассмотрим историю коррупции. В письменных источниках упоминается коррупция во времена Шумерского царства до нашей эры. Тот факт, что коррупция дошла до наших дней, показывает, что, как и другие пороки, ее невозможно полностью искоренить. Даже развитые западные страны не смогли полностью избавиться от коррупции. Однако предотвращение коррупции, угрожающей развитию общества, и борьба с ней всегда продолжались во всех странах Земли.

**Ключевые слова:** Коррупция, общество, государство, дознание, преступник, несправедливость, доход, общественность, закон, должность, управление, порок, проблема, решение, предложение.

**Abstract:** In this article, we will look at the history of corruption. Written sources mention corruption during the Sumerian kingdom before Christ. The fact that corruption has reached our days shows that, like other vices, it cannot be completely eradicated. Even the developed western countries could not completely get rid of corruption. However, the prevention of corruption, which threatens the development of society, and the fight against it, have always continued in all countries on Earth.

**Key words:** Corruption, society, state, inquiry, criminal, injustice, revenue, public, law, office, administration, vice, problem, solution, proposal.

**Kirish.** Korrupsiya bir necha ming yillik tarixga ega. Yozma manbalarda korrupsiya haqida eramizdan avvalgi Shumer podsholigi davrida eslatib o‘tiladi. Korrupsiya bizning kunlargacha yetib kelganligi shundan dalolat beradiki, boshqa

illatlar kabi, uni ham tag-tugi bilan yo‘qotib bo‘lmaydi. Hatto rivojlangan o‘arb davlatlari ham korrupsiyadan butkul xalos bo‘lolmagan. Biroq jamiyat rivojiga xavf soluvchi korrupsiyaning oldini olish, unga qarshi kurashish Yer yuzidagi barcha davlatlarda hamisha va hamma zamonda davom etgan.

Korrupsiya keng qamrovli tushuncha bo‘lib, u jamiyatning ayrim qatlamlari, toifalari, guruhlarikundalik faoliyatiga aylanib, o‘zaro bir-biriga bog‘lanib, chirmashib ketganligidan ko‘z yumib bo‘lmaydi. “Nozik”, “chigalroq” ushbu masalada davlatning huquq-tartibot idoralari birmuncha hushyor, ziyrak bo‘lishi, shuningdek, nodavlat tashkilotlari, turli komissiyalar, jurnalistlar, mustaqil sudlar tizimi faolroq ishlashi haqida tadqiqotchilar anchadan beri yozib keladi. Siyosatchilar, sotsiologlar, psixologlar, tarixchilar, davlat hamda jamoat organlari, siyosiy partiyalar, eng muhimi, amaliyotchilar masalani tahlil etish va yechimini topish ustida bosh qotirishi lozim[1-2].

**Masalaning qo‘yilishi va tadqiqot usuli.** Dunyoda korrupsiyaning turi ham, tavsifi ham juda ko‘p. Uning kelib chiqish sabablarini o‘rganish, unga qarshi kurashishning samarali yo‘llarini topish bo‘yicha olimlar, turli institutlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan yuzlab, minglab tadqiqotlar o‘tkazilmoqda. Bu borada turli ko‘rsatkich va raqamlar aks etgan jadvallar ham yaratilgan, o‘ziga xos reytinglar tuzilgan. Hatto korrupsiyaning ildizi va yechimini topishga qaratilgan har xil formulalar ham ishlab chiqilganki, bu boradagi ishlar va izlanishlar bugungi kunda ham izchil davom ettirilmoqda.

Adabiyotlarda korrupsiyaga shaklan har xil, mazmunan bir-biriga yaqin bo‘lgan ta’riflar beriladi. Korrupsiya muammosining tadqiqi bilan shug‘ullangan amerikalik olimlar E.Benfild, M.Jonston, J.Naylarning fikricha: «Korrupsiya – bu siyosiy arboblarning, davlat apparati xodimlarining va boshqa shaxslarning shaxsiy, oilaviy yoki guruhviy manfaatlar uchun boylik orttirish va o‘zining ijtimoiy maqomini ko‘tarish maqsadida o‘zlarining rasmiy burchlarini va davlat funksiyalarini bajarishdan bosh tortishidir», deb fikr bildirishsa, Rossiyalik olim P.A.Cherkasov esa, «Korrupsiya – bu jamiyat va davlatda ro‘y beradigan salbiy hodisalar majmuyidir», deb fikr bildiradi[3-5].

Bir so‘z bilan aytganda, korrupsiya so‘zi «sotish», «sotilish», degan ma’nolarni ham anglatar ekan. Rahbar yoki mas’ul kishi qanday qilib korrupsiyaga qo‘l uradi? Bunga qanday omillar sabab bo‘ladi? Bu savollarga javob har xil bo‘lishi mumkin. Lekin shunisi aniqki, sotadigan xam, sotiladigan xam, nafaqat bugunning, balki ertangi nurli kelajagimizning ham xiyonatkoridir!

Yurtimizda sodir bo‘layotgan bunday holatlarga e’tibor bilan nazar tashlasak, korrupsiyaga qo‘l urgan, jinoyat ishi ochilgan odam, birinchi navbatda, qonunni buzadi, qolaversa, yon atrofga o‘zining kimligini, e’tiqodi, olgan tarbiyasi va ma’naviyati qay darajada ekanligini oshkor qiladi. Bunday kimsalar nafaqat

davlatimizga moliyaviy ziyon yetkazadi, balki o'zining va oilasining, butun boshli oilasi va yaqinlarining ham obro'sini to'kadi. Eng xatarlisi esa, bugungi kunda ham joylarda jinoyat sodir etilishiga imkon berilayotgan shart-sharoitlar, atrofdagilarning bunday holatga nisbatan befarqligi, qolaversa, bu illatni odamlar oddiy holat sifatida qabul qilayotganliklaridadir, deb hisoblaymiz[6-7].

Bu kurash kundalik hayotimizdagi oddiy holatlardan boshlanadi. Shifokordan yaxshiroq maslahat olish, navbatni tezlashtirish, reyting daftarchasiga tuzukroq baho qo'ydirish va hokazo vaziyatlarda o'zimizni munosib tutishimiz lozim bo'ladi. Shuning uchun ham aholining, ayniqsa, yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan muhosasiz munosabatni shakllantirish, xususan, davlat organlari va boshqa tashkilotlar xodimlarining huquqiy savodxonligini yanada oshirish orqaligina ko'zlangan natijalarga erishishimiz mumkin.

**Tadqiqot natijalari va ularning muhosikasi.** «Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida»gi qonunning 9-moddasida bizning bu boradagi huquqlarimiz kafolatlangan. Qonunga ko'ra, jismoniy va yuridik shaxslarning korrupsiyaga oid huquqbuzarlik faktlariga doir murojaatlar to'liq, xolisona va o'z vaqtida ko'rib chiqiladi. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida axborot bergan shaxslarning himoya qilinishi ta'minlanadi[8].

Hammamiz yaxshi bilamiz, qonun huquqiy munosabatlarni tartibga soladi. Vakolatlar, huquq va majburiyatlarni, amalga oshiriladigan chora-tadbirlarni belgilab beradi. Agar qonun hayotda ishlamasa, uning bir necha varaq oddiy qog'ozdan farqi qolmaydi. Shunday ekan, «korrupsiya haqida farmon qabul qilindi, endi hammasi iziga tushib ketadi», deb o'ylash, xotirjamlikka berilish katta xato bo'ladi. Korrupsiya balosidan qutulish, ayniqsa, ta'lim sohasini uning changalidan ozod etish haqida hammamiz o'ylashimiz, buning zaruratini har birimiz yuragimizdan o'tkazishimiz, unga qarshi qat'iy kurashishimiz lozim.

Ta'kidlaganimizdek, ta'lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy ta'lim va tarbiyani kuchaytirish masalasi ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Tarixdan ma'lumki, to'g'ri ishlab, to'g'ri yashash saodatini bolalikdan, yoshlikdan o'rgangan odam mard va halol bo'ladi. Adolatsizlik, qonunga hurmatsizlik, kasbu amalga, ishonchga xiyonat qilib bo'lmasligini o'qib-uqqan, poraxo'rlik va korrupsiyaga, suiiste'molchilikka qarshi o'zida immunitet hosil qilgan yoshlar kelajakda jur'atli, vijdonli inson bo'lib yetishadi. Qonunga, tartib-qoidalarga hurmat saqlab, el-yurtga sadoqat bilan xizmat qiladi. Halol mehnat bilan topilmagan boylik totli bo'lmasligini, hech kimga buyurmasligini, yaxshilik emas, yomonlik va kulfat keltirishini tushunadi[9-10]. Buyuk donishmandlardan bir shunday degan ekan: «...bugun bir jinoyatga qo'l urgan bola, demakki, o'z vaqtida to'g'ri tarbiya berilmaganidan dalolat, xudo biladi, biz bugun tug'ri tarbiya beraolmay qanchadan-qancha jinoyatchilarni tarbiyalabmiz».

**Xulosa.** Fikrimiz oxirida yuqorida ta’kidlangan fikrlardan kelib chiqib, bu yo‘nalishdagi ishlarni yanada ijobiy hal qilinishiga ko‘maklashuvchi quyidagi xulosa va takliflarimizni bayon qilishni lozim topdik:

Yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar tizimini yanada takomillashtirish lozim. Ayni yo‘nalishda har xil tanlovlar, musobaqalar, ilmiy-amaliy anjumanlar o‘tkazishni tizimli amalga oshirish zarur. Rivojlangan davlatlarning yetakchi oliy ta’lim muassasalari tajribasidan andoza olgan holda, bizda ham oliy ta’lim tizimida o‘qituvchilarning pedagogik mahorati, bilimi va ma’naviy dunyosini aniqlashda birinchi navbatda TALABALAR FIKRIGA, ya’ni ular tomonidan o‘qituvchini baholashga asoslanishimiz lozim. Hatto, talabalar fikrlari asosida o‘qituvchilarning mehnat ish haqi miqdori ham belgilanadi. Agar talabalar tomonidan o‘qituvchi faoliyatiga qo‘yilgan baholar juda past bo‘lsa, bunday o‘qituvchilar bilan institut shartnomani bekor qilishi prinsiplarini yzlarimizga andoza qilib olishimiz zarur;

#### **Foydalangan adabiyotlar:**

1. Omonov FA, Jorayev VI PROBLEMS AND CAUSING FACTORS IN THE DEVELOPMENT OF FERGANA CITY PUBLIC TRANSPORT //European Journal of Emerging Technology and Discoveries. – 2023. – T. 1. – No. 2. – pp. 72-75.

2. Islomjon o'g JV et al. CONVENIENCES CREATED TO PASSENGERS WHEN USING PUBLIC TRANSPORT SERVICES //Education news: research in the 21st century. – 2023. – T. 2. – No. 14. – pp. 138-146.

3. Islomjon o'g QK va boshqalar. AVTOBUS PARKINI ISHLATISHDA MODDIY RESURSLAR SARFINI STAVKALASH METODIKASI //Mexatronika va robototexnika: muammolar va rivojlanish istiqbollari. – 2023. – T. 1. – Yo‘q. 1. – 266-267-betlar.

4. Икромов, Н. А. (2021). Исследования физико-механических свойств радиационно модифицированных эпоксидных композиций и покрытий на их основе. *Universum: технические науки: электрон. научн. журн*, 12, 93.

5. Anvarjonovich T. S. AVTOTRANSPORT KORXONALARIDA MAVJUD YORDAMCHI USTAXONALAR FAOLIYATINI TASHKIL QILISH VA TAKOMILLASHTIRISH //World scientific research journal. – 2023. – T. 18. – №. 1. – С. 136-141

6. Темиров Ш. А. Проблемы и коммерциализация инноваций в России на современном этапе развития //Матрица научного познания. – 2019. – №. 6. – С. 184-192.

7. Kholmatov U. S. et al. Characteristics of optoelectronic discrete displacement converters with hollow and fiber light guides //E3S Web of Conferences. – EDP

Sciences, 2024. – T. 471. – C. 06015.

8. Melikuziev A. et al. IMPROVING THE PERFORMANCE OF THE FUEL INJECTION SYSTEM //Development and innovations in science. – 2022. – T. 1. – №. 14. – C. 10-14.

9. Xalilbek o'g'li X. E. et al. YENGIL AVTOMOBILLARGA TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH STANSIYASI LOYIHALASH //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2024. – Т. 19. – №. 1. – С. 236-239.

10. Xalilbek o'g'li X. E. ICHKI YONUV DVIKATEL DETALLARINI QURUM BOSISHINI TEKSHIRISH //World scientific research journal. – 2023. – Т. 18. – №. 1. – С. 110-115.